

MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINING MISSIYASI: TAKOMILLASHTIRISH VA TARAQQIYOT STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH TAMOYILLARI

Tojiyev Javlonbek Rustamovich

O'zbekiston san'at va madaniyat instituti "Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrasini
katta o'qituvchisi

Mas'uliyat: *insonning o'z hayoti va faoliyatiga bo'lgan talabchanligidan boshlanadi, oila oldidagi javobgarlikni anglash va his qilish bilan u tarraqqiy etadi. Jamoa olidagi mas'uliyatni his qilgan, jamoa manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yadigan shaxs rahbar bo'la oladi. Millat, Vatan uchun jonini ayamay mehnat qila oladigan faollar ko'paygan yurt ravnaq topadi. Nafaqat o'z xalqi, balki dunyo xalqlari taqdiri uchun kurashga kirisha olgan shaxslar, arboblar insoniyat taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'sha oladilar. Buning uchun oly darajadagi mas'uliyat zarur. Shunday qilib, mas'uliyat darajasi ko'tarilib boradi.*

Annotatsiya: *Bugungi kunda malakali menejerlar - sifat jihatidan yangi iqtisodiyotning namoyondalari hamma narsani hal etmoqda. Yangilikka intilish esa - menejerlik mazmun-mohiyatini ifoda etadi. Shu bois menejmentni boshqarish fani sifatida chuqur va har tomonlama o'rghanish, shuningdek, bu sohada xorijda yig'ilgan tajribani tanqidiy tahlil etish va undan ijobjiy foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda menejerlar deyarli barcha korxona va tashkilotlarda mayjud bo'lib, menejment inson faoliyatining turli sohalarini qamrab oladi.*

Kalit so'zlar: *Mas'uliyat, Missiya, strategiya, menejment, menejer, tashkilot, korxona, tashkilotchilik qobiliyati, korparativ boshqaruvi, saloxiyat, boshqaruvi ierarxiysi, ko'nikma, tajriba, ijtimoiy madaniyat, tashabbus, qadriyat, e'tiqod, talab, ehtiyoj, bozor, Prognoz, Taktika.*

Abstract: *Today, qualified managers - representatives of the qualitatively new economy - decide everything. Striving for innovation represents the essence of management. Therefore, it is important to study management in depth and comprehensively, as well as to critically analyze and positively use the experience gained abroad in this field. Today, managers exist in almost all enterprises and organizations, and management covers various areas of human activity.*

Key words: *Responsibility, Mission, strategy, management, manager, organization, enterprise, organizational ability, corporate management, authority, management hierarchy, skill, experience, social culture, initiative, value, belief, demand , need, market, Forecast, Tactics.*

Rejalashtirish jarayoni missiya va strategiya kabi strategik tanlash elementlarini shakllantirish bilan bevosita bog'liq Missiya tashkilotning mavjudligini ma'nosini belgilaydigan umumiy maqsad bo'lib, strategiya uzoq muddatli davr uchun tashkilotning harakat yo'nalishini belgilovchi harakatlar majmuuni nazarda tutadi.

¹Qoraboyev U. Madaniyat masalalari.-Toshkent: O'zbekiston .

Madaniyat va san'at muassasasining maqsadi va vazifalari uning missiyasi va strategiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak. Bu elementlarning barchasini madaniyat muassasasining strategik rejalarshirishiga taaluqli bo'lishi mumkin. Strategik rejalarshirishda missiyani asoslash alohida o'rinn tutadi.

Madaniy faoliyatning missiyasi va asosiy maqsadlari boshqa strategik elementlarga kerakli parametr va xususiyatlarni belgilaydi. Missiya o'zi uchun zarur bo'lgan madaniyat muassasasining asosiy maqsadidir. Missiya tashkilotning asosiy faoliyatni tavsiflaydi. Tahlil qilish va diqqatni madaniy muassasaning maqsadlariga qaratishga yordam beradi. SHuningdek, tashqi muhit muassasaning aniq imdjni shakllantirishga imkon beradi.

Missiya muassasaning maqomini asoslaydi va faoliyatning muayyan yo'naliшlariga bo'lgan ehtiyojini tushuntiradi. Boshqaruvda qarorlar qabul qilishni, ijtimoiy-madaniy loyihalarni, dasturlarni amalga oshirishni va hokazolarni dolzarblashtiradi.

Tashkilot tomonidan belgilangan missiya uning faoliyatni strategik rejalarshirish va rejalarshirilgan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha taktik qadamlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Missiya tashkilotning mazmuni va maqsadini ochib beradi. Uning o'ziga xosligini ta'kidlaydi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, missiyaning qo'yidagicha asosiy tashkiliy elementlari bo'lishi kerak:

- qadriyatlar va e'tiqodlar;
- mahsulotlar talabi yoki bozor ehtiyojini kondirish;
- bozor muhit;
- bozorga kirish yo'llari;
- tashkilotni rivojlantirish va moliyalashtirishning strategik tamoyillari;

Missiyaning o'zi ham muhim bo'lib, u aniq va qisqa bo'lishi kerak. Ijtimoiy-madaniy faoliyat markazida shaxs va uning ma'naviy kamoloti, ijodiy salohiyatini ochib berish, shaxsiy ongi va xulq-atvori, ijtimoiy moslashish qobiliyati, ijtimoiy quzg'olonlardan himoyalanish kabi masalalar turadi. SHu bilan birga, har bir madaniyat institutining o'ziga xos xususiyatlari bor. Ularning missiyasini belgilovchi individual vazifa va funksiyalar mavjud. Ularning barchasi ko'pincha jamiyatning madaniy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq (teatr, madaniyat markazi va boshqalar).

Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, ijtimoiy-madaniy sohada umuman olganda, madaniy jarayonlarning xususiyatlari, tomoshabinlarning hatti-harakatlari, shakllari bo'yicha bir-biridan farq qiladigan turli xil muassasalar va tashkilotlar guruhlari mavjud garchi ular ichida bu xususiyatlarning ko'plab darajalari mavjud. Jumladan:

- madaniy xizmat ko'rsatish shakllarining ko'p ovozliligi bilan ajralib turadigan madaniyat va san'at muassasalari;
- umumiylar maqsadlarga bo'ysunadigan tuzilma uchun shart-sharoitlarni yaratishda turli xil mikro muhitlar;
- kasblarni individual tanlash;
- madaniy dasturlarga bo'lgan haqiqiy talab;
- muzey va ko'rgazma muassasalari;

Taniqli sotsiolog A.Mol o'zining "Madaniyat sotsiodinamikasi" asarida keltirgan fikricha "madaniyat saqllovchisi" san'atni tarqatishga qaratilgan institutlar, tomoshabinlarni tarbiyalash,

teatr an'analarini saqlash va innovatsion teatr tomoshalarini sinovdan o'tkazish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga yordam ko'rsatish bo'yicha ijtimoiy dasturlarni amalga oshiradigan ijtimoiy himoya instittlari va boshqalar hisoblanadi.

Har bir madaniyat va san'at muassasasi o'z missiyasini e'lon qilar ekan, faoliyatning maqsadlari haqida qisqacha ma'lumot beradi. Unga erishishda qanday tamoyillarga amal qilishini belgilaydi. Vazifani shakllantirishda madaniyat muassasasining barcha xodimlari ishtirok etishi muhim. Ularning har birining faoliyati muassasa oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishga qanchalik hissa qo'shayotganini ko'rib chiqish mumkin. Malakali tarzda tuzilgan missiya madaniy muassasaning markaziy g'oyasiga aylanadi. Har bir xodimga faoliyatning barcha darajalariga kirib boradi va motivatsiyasini, umumiyl ishda ishtirok etish darajasini oshiradi. Strategiya tashkilot va muassasalar faoliyatning asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Strategiyani proqnoz deyish xam mumkin.

Proqnoz esa, yunoncha prognosis – oldindan bilish, ilmiy asoslangan bashorat. Bo'lajak voqeа yoki hodisalarning qanday kechishini, rivojlanishini va oqibatini maxsus izlanishlar, mavjud dalillar va ma'lumotlarga asoslanib, oldindan aytib berish va oldindan chiqarilgan xulosadir².

Strategiya – bu uzoq muddatli rejalshtirish bo'lib, u missiyani amalga oshirish uchun usullar va chor-tadbirlarni o'z ichiga olgan konsepsiya va rivojlanish dasturini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Strategiya yunoncha "strategia" so'zidan olingan bo'lib, urush san'ati degan ma'noni anglatadi. Bu atamani qadimgi yunonlar o'zlarining eng ko'zga ko'ringan harbiy qo'mondonlarining jasoratlarini tasvirlash uchun ishlatgan.

Oksford inglizcha lug'ati strategiyani "bosh qo'mondonning san'ati, harbiylarning yirik operatsiyalarini rejalshtirish va boshqarish san'ati" deb ta'riflaydi. Natijada strategiya deganda, maqsadga ega bo'lgan odamlarga unga samarali yo'llar bilan erishishga imkon beradigan muayyan vosita tushumiladi. Strategiya qo'yidagilar orqali ishlab chikiladi:

- tashkilotning tashqi muhitini baholash va tahlil qilish;
- tashkilotning ichki muhitini diagnostik tahlil qilish;
- strategik alternativlarni ishlab chiqish va tahlil qilish;
- eng makbul strategiya variantini tanlash;
- strategiyani missiya va asosiy maqsad bilan bog'liq holda baholash;

Tashkilotning strategik maqsadlari uning alohida sektorlari, tuzilmalari, bo'limlari va boshqa bo'limmalari bilan emas, balki butun faoliyati bilan ko'proq bog'liq. Rivojlanishning o'zagini va umuman madaniyat va san'at sohasining har bir o'ziga xos madaniyat institutini belgilashda strategiyaning roli katta.

Strategiya – bu tashkilot o'zgaruvchan atrof-muhit sharoitlariga dosh beroladigan, beqarorlik sharoitida "omon qola oladigan" quroldir. Madaniyat va san'at muassasalarining strategik maqsadlari ularning ijtimoiy maqsadlarini amalga oshirishi (tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish, shaxsnинг ijodiy salohiyatini ochish va boshqalar) bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Ularning strategiyalari va tijorat firmalari strategiyalari o'rtasidagi farq bilan bog'liq.

Foyda ko'rsatkichi tijorat tashkilotlari uchun juda muhimdir. Madaniyat sohasida ko'pchilikni tashkil etuvchi notijorat muassasalar esa bunday qilmaydi. Strategiyaga muvofiq,

² <https://uz.wiktionary.org/wiki/proqnoz>

madaniyat muassasalarini ham strategik rejalarini (3-5) yilga ishlab chiqadi. Unda strategik maqsadlarga erishish uchun muassasalar amalga oshirishni rejalashtirgan harakatlar, resurslarni taqsimlash yo‘nalishlari, ijodiy salohiyat va boshqalarni belgilaydi.

“Taktika” tushunchasi “strategiya” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Taktika – tashkilotning iqtisodiy faoliyatining ma’lum vaqt oralig‘ida strategiyani amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimidir.

Taktika, umuman olganda, madaniyat muassasasining strategik maqsadlariga erishishning eng muhim omili hisoblanadi. SHuning uchun har bir taktik maqsadning amalga oshirilishi belgilangan vazifalarni amalga oshirishga yaqinlashtiradi.

Ko‘pincha taktik maqsadlarga yillik rejalashtirish, shuningdek, madaniyat va san’at muassasalarida bo‘lim va sektorlarni rejalashtirish xizmat qiladi. Maqsadga erishishning taktik usullarini ishlab chiqish madaniyatning turli bo‘g‘inlari o‘rtasidagi muvofiqlashtirish tartibiga muvofiq amalga oshirilishi kerak. SHu bilan birga, aniq maqsadlarni belgilash umumiyligi missiya bayonotidan alohida ish rejalariga, madaniy faoliyat vazifalariga o‘tishga yordam beradi. Maqsadlarni belgilash har qanday tashkilotda rejalashtirish jarayonidan oldingi faoliyatdir. Maqsadlar madaniyat sohasidagi pozitsiya, faoliyatning ijro shartlari va boshqa omillarni hisobga olgan holda missiya asosida belgilanadi.

Maqsadlarsiz rejalashtirish ham umuman amalga oshirish ham imkonsiz bo‘lib qoladi. Maqsadlarni malakali belgilash samarali strategiyani tanlashga yordam beradi va missiyani aniq harakatlarga aylantirish imkonini beradi. Har qanday tashkilotning maqsadlari qo‘yidagilardan iborat:

- rejalashtirishning boshlang‘ich nuqtasi;
- tashkiliy faoliyatning assosi;
- motivatsiya tizimidagi asosiy bosqich;
- natijalarini baholash va faoliyatni monitoring qilish jarayonining boshlang‘ich nuqtasi.

Maqsadlarni aniqlash jarayoni eng avvalo, madaniyat institutining rivojlanish tendensiyalarini aniqlashni nazarda tutadi. Har qanday tashkilotning maqsadlarini aniqlash siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy muhitda, raqobatchilar, iste’molchilar bilan munosabatlarda va hokazolarda yuzaga keladigan imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlash uchun tashqi muhitni tahlil qilishni nazarda tutadi. Boshqa tomondan, bu tashkilot faoliyatining kuchli va zaif tomonlari (xizmatlar ishlab chiqarish, moliyalashtirish, kadrlar, tashkiliy tuzilma, imdj va boshqalar) aniqlash uchun zarur bo‘lgan ichki muhit va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish bilan to‘ldiriladi. Madaniyat va san’at sohasidagi maqsadlarni belgilashning mumkin bo‘lgan yo‘nalishlari ko‘yidagilar bo‘lishi mumkin:

- madaniy xizmatlar ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyatlari;
- byudjetdan tashqari xizmatlar miqdori;
- tijorat faoliyatining mavjudligi, xarakteri va ko‘lami;
- madaniyat sohasidagi texnologiyalar (yangi texnologiyalarni joriy etish);
- tadqiqot va tahliliy ishlar;
- madaniy mahsuloti (innovatsion, an’naviy, noyob va boshqalar);
- madaniy xizmatlarni sotish bozori (shahar, milliy, xalkaro va boshqalar);
- sheriklik va hamkorlik (biznes, ijtimoiy tuzilmalar,hokimiyat bilan);

- kadrlar, intellektual, ijodiy salohiyat;
- imidj, missiya, nom, ijod, ramzi, muassasa, madaniyat arbobini shakllantirish yoki targ'ib qilish;

Tashkilotning to‘g‘ri tuzilgan maqsadlari aniq (uning mazmunini ifodalashda aniqlik) o‘lchanadigan, erishish mumkin (haqiqiy) va kelishilgan bo‘lishi kerak. Bunday maqsadlar qanday, qancha va nimaga erishish kerakligini tushuntiradi. Barcha boshqaruv faoliyati, menejerning barcha ishi maqsadlarga erishiga qaratilgan.

Maqsadlar tashkilotning missiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan umumiylar maqsadlarga bo‘linadi va ular uchun ishlab chiqilgan institutlar ,uning bo‘limlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlarida ishlab chiqilgan istiqbolli va o‘ziga xos bo‘ladi. Bundan tashqari 5 yil muddatga belgilangan uzoq muddatli maqsadlar, o‘rta muddatli maqsadlar (1-3yilgacha) va operatsion (qisqa muddatli) maqsadlar nuqtai nazaridan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoev SH. YAngi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston. 2021, 239 b.
2. Mirziyoev SH. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. - 400b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020 yil, 24-yanvar. - Toshkent: Tasvir. 2020. 69 b.
4. “YAngi O‘zbekiston” ijtimoiy-siyosiy gazetasining №228 (484), 2021 yil 13 noyabr, shanba soni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning Turkiy tili davlatlar hamkorlik Kengashi sammitidagi nutqi
5. YAngi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. Toshkent - 2021 yil. “O‘qituvchi” MCHJ matbaa uyi. 182-bet.
6. Haydarov A. Madaniyat - milliy yuksalish poydevori (matn) “Oltin meros press” nashriyoti. Toshkent - 2021. 478 bet.
7. Alimasov V., Manzarov YU. O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy soha: nazariya va amaliyot (falsafiy-sotsiologik tadqiqot). Navro‘z. Toshkent 2014. 120 b.
8. Qosimova D.S. Menejment nazariyasi. - Toshkent, Tafakkur-bo‘stoni. 2011. 336-bet.
9. Bekmuradov M.B., SHodiev X.X. “Menejment nazariyasi va amaliyoti”. Toshkent, 2021. “Zamon poligraf” OK nashriyoti. 272 b.
10. Alimasov V. Madaniyat muassasalarida iqtisodiy boshqarish usullari. Toshkent - 1997 y. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. Qo‘lyozmalar Instituti. 117-b.
11. Alimasov V.A., Xodjaeva B.X. Ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotda tarixiy shaxslarning roli. - T.: “Fan va texnologiya”, 2016, 120 bet.
12. A.Nurullaev-O‘quv qullanma San’at_menejmenti va marketing 18.02.22. y